

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

NA’MATAK –*Rosa (Cynosbatum)* O’SIMLIGININ DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O’RNI

Yaxshiboyeva Maftuna Xolmurat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti "Biologiya va uni o‘qitish kafedrası" O‘qituvchisi
(e-mail:) ymaftuna7777@gmail.com

Ramozonova Ozoda Abdiholiq qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Biologiya ta'lim yo‘nalishi 3- bosqich talabasi
(e-mail:) oromozonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada na’matak o’simligining turlari, mevasining kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyati va insonlar hayotida tutgan o’rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Na’matak, meva shakli, navlari, damlama tayyorlash, preparat tayyorlash, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyati, vitaminlar, kasalliklar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о видах растения на́маток, химическом составе его плодов, лечебных свойствах и роли в жизни человека.

Ключевые слова: Форма плодов, сорта, приготовление настойки, лекарственное средство, химический состав, лечебные свойства, витамины, болезни.

Annotation: This article provides information about the types of the namatak plant, the chemical composition of its fruit, its medicinal properties, and its role in human life.

Keywords: Fruit shape, varieties, tincture preparation, drug preparation, chemical composition, medicinal properties, vitamins, diseases.

O‘zbekiston tibbiyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining 30-40 % ni dorivor o‘simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ma’lumki yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi bor. 1000 dan ortiq o‘simlik turlarining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda esa dorivor o‘simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirda 250 turi tabobatda ishlatilmoqda.

Dorivor o‘simliklardan biri hisoblangan na’matak va uning dorivorlik xususiyati inson hayotida tutgan o’rni haqida gaplashamiz.

Na’matak - *Rosa (Cynosbatum)* na’matak turlari bo‘yi 2 m ga yetadigan tikanli buta. Novdasi egiluvchan bo‘lib, yaltiroq qo‘ng‘ir-qizil yoki qizil-jigarrang tusli po‘sti oq hamda tikanlar bilan qoplangan. Bargi toq patli, poyada bandi bilan ketma-ket o‘rnashgan. Bargchasi (5- 7 ta) tuxumsimon shaklli va arrasimon qirrali. Gullari yirik, yakka yoki 2-3 tadan shoxlarga o‘rnashgan. Guli qizil, pushti, sariq yoki oq rangli, xushbuy hidli. Gul oldi barglari lansetsimon. Kosacha bargi va tojbargi 5 tadan, otalik va onaliklar ko‘p sonli Mevasi - gul o‘ridan hosil bo‘ladigan shirali soxta meva. Ichida onaliklaridan hosil bo‘lgan bir nechta haqiqiy meva - yong‘oqchalar bor. Yong‘oqcha o‘tkir uchli, sertuk bolib, burchaksimon shaklga ega. May oyidan boshlab, iyulgacha gullaydi, mevasi avgust sentyabrda pishadi. Na’matak turlari o‘rmonlarda, ariq bo‘ylarida, butalar orasida, tog‘larda qum, toshloq yon bag‘irlarida va boshqa yerlarda o‘sadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Na'matakning ayrim turlari bir-biridan mevasining, novda po'stlog'idagi tikanning rangi, shakli, katta-kichikligi hamda novdadagi tikanlar soni va joylashishiga qarab farq qiladi.

Markaziy Osiyoda o'sadigan 36 ta na'matak turlaridan 17 tasi O'zbekiston florasida uchraydi. Ulardan quyidagi 5 ta turi esa tibbiyotda ishlatiladi: Begger na'matagi (shipovnik Beggera) - *Rosa heggeriana Schrenk*, Oddiy na'matak (shipovnik sobachiy) - *Rosa sanina*, L., Fedchenko na'matagi (Shipovnik Fedchenko) *Rosa fedtshenkoan Rgl* va Dargumon na'matak (Shipovnik somnitelniy) - *Rosa ambigua Russ* kabilar.

Mahsulot tarkibida (quruq holda hisoblaganda) 4-6%. ba'zan 18% gacha vitamin S, 0,3 mg % vitamin V2, KI (1 g mahsulotda 40 biologik birlik miqdorida), vitamin R, 12-18 mg % karotin, 18% atrofida qandlar, 4-5% oshlovchi moddalar, 2% atrofida limon va olma kislotalari, 3,7%o pektin va boshqa moddalar bo'ladi. XI DF ga ko'ra vitamin S butun holdagi mahsulotda 1%, tozalab qirqilgan mahsulotda 2%, kukun holdagisida esa 1,6% dan kam bo'lmasligi kerak. Na'matak urug'ida moy, ildizi va bargida esa oshlovchi moddalar bo'ladi. Na'matak o'simligining mevasi tarkibida bir necha xil vitaminlar aralashmasi bor, shu sababli preparatlari avitaminoz kasalliklarini davolashda va oldini olishda ishlatiladi. Bundan tashqari, na'matak mevasi konditer sanoatida mahsulotlarni vitaminlashtirish uchun qo'llaniladi.

Mevasining yumshoq etli qismi moyli bo'lib, tropik yaralar, ekzema (gush), yaralangan shilliq pardalarni davolash uchun surtiladi yoki dokaga shimdirilib, shikastlangan joyga qo'yiladi. Odamning quvvati kamayganida, erta bahorda organizmda vitaminlar yetishmaganda na'matak qaynatmasi tavsiya etiladi. Na'matak mevasi odamning immunitetini oshiradi. Qaynatmaga nisbatan termosda damlangan na'matakda vitaminlar ko'proq saqlanib qoladi. Tarkibidagi C vitamini qonni suyultiradi, arterial bosimni tushiradi, organizmdan mikroblarni chiqarib yuborishga yordam beradi.

Namatak siropi yoki mevalaridan tayyorlangan choy sovuq mavsumda issiq mijozlik kishilarga esa na'matak damlamasi va qaynatmasi to'g'ri kelmaydi, chunki u bunday odamlarning oshqozon osti beziga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, namatakning foydali ekanligi shubhasiz ko'rinsada, u har qanday dorivor o'simlik kabi, me'yorga amal qilinmasa organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, uning damlamasi bilan vitaminlanishdan oldin, insonga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy tasiri haqida bilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. E.T.Berdiev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova “O‘rmon dorivor o‘simliklari” Toshkent 2016 y.
2. F.F.Urmanova, X.M.Komilov, A.Ya.Ibragimov, D.K.Po‘latova, M.T.Mullajonova “Dorivor o‘simliklar resursshunosligi” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2015.
3. A.K.G‘aniev “Dorivor va yuqori o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va homashyosini tayyorlash” bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent 2015.
4. Tursunaliyevna H. S., Nozima A. Effectiveness of using innovative technologies in teaching the morphology of bacteria //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 60-66.
5. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS'LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169.
6. Abdullayeva G. K. A COMPARATIVE STUDY OF THE DISTRIBUTION OF CYANOPROKARYOTES AND ALGAE IN SOILS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 67-71.